

**“ALISHER NAVOIY “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI INSON  
KAMOLOTIGA QARATILGAN MAVZULARNING YORITILISHI”**

*O‘zbekistan xalqaro islom akademiyasi*

*Ilmiy rahbar: PHD To‘chiyeva Nilufar*

*Islomshunoslik yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

***Yo‘ldosheva Sevinch***

+998880018998

[ysevinch65@gmail.com](mailto:ysevinch65@gmail.com)

**Annotasiya:** Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari, tasavvufiy adabiyotning o‘ziga xos namunasidir. Asar, Navoiyning insoniy his-tuyg‘ular, ma’naviyat va axloqiy tamoyillarni yuksaltirishga bo‘lgan intilishlarini aks ettiradi.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, axloq, sabr, shukr, ruhiy taraqqiyot, hikmat, qalb.

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Yurtboshimiz ham ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratilganini ko‘p bora ta’kidlaydilar.

Xazrat Alisher Navoiy o‘zining betakror g‘azallari, buyuk “Xamsa”si bilan o‘z davrida juda katta shon-shuxrat qozongan edi. Ulug‘ shoir umr so‘ngida avlodlarga aytadigan pand-nasixatlarini, dil dardlarini, qalb hayqiriqlarini, hayot saboqlarini, jamlab, o‘zining “Mahbub ul-Qulub” asarini bayon qilgan.

Navoiyshunos Shuhrat Sirojiddinov hazrat Mir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari haqida shunday yozadi: “Hazrat Navoiy nafaqat ulug‘ mutafakkir, ulug‘ shoir, balki o‘z xalqi, millati taqdiriga befarq bo‘lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o‘z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyat bilan bog‘liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish va shaxs ma’naviyatini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

tarbiyalash kabi o‘zining so‘nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi”<sup>1</sup>

“Mahbub ul-qulub” – “Qalblarga sevimli bo‘lgan kitob” ma’nosini bildiradi. Uni “Dillarga oshno asar” yoki “Qalblarga yaqin kitob” deb tarjima qilish ham mumkin.

“Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy tomonidan 1500-yilda yozilgan. Asar o‘zaro uch qismdan iborat:

Birinchi qism: Turli odamlarning fe’l-atvori va ahvoli haqida.

Ikkinci qism: Yaxshi fe’llar hosiyati va yomon fe’llar kasofati haqida.

Uchinchi qism: Turli foydali narsalar va turli misollar (hikmatlar) haqida.

Birinchi qism 40 fasldan iborat bo‘lib, jamiyatni tashkil qiluvchi tabaqa va toifalar haqida batafsил yoritib beradi. Bu o‘quvchida jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Birinchi qismda tijorat ahli, munajjimlar, dehqonlar, hofizlar, shoirlar, faqihlardan tortib vazir-u podshohgacha har birining aslida qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari talab etilishi va o‘sha davrda ularning tabiatlarida zohir bo‘layotgan illatlar tilga olinadi. Misol qilib:

Bayt:

Hoziq tabibi xushgo‘y tan ranjig‘a shifodur,

Omiy-u tund-u badxo‘y el jonig‘a balodur.

Sharx: shirinso‘z tabib tan dardiga davodir, omiyu qo‘pol va badfe’l tabib, el joniga balodir.

Ushbu baytda tabiblar Iso payg‘ambarga o‘xshatiladi. Iso chiqqan jonne duo bilan inson tanasiga qaytargan bo‘lsa, tabiblar chiqayotgan jonga davo bilan tanani tark etishga monelik qiladi, deyiladi. Tabib o‘z fanida nihoyatda mohir, kasbiga sadoqatli, bemorga marhamatli va shafqatli bo‘lishi lozim. Bunday tabibning yuzi bemorga mahbub, so‘zi bemor joniga marg‘ubdir.<sup>2</sup> Ammo o‘z kasbini yaxshi egallamagan, yomon fe’lli, beparvo va dag‘al muomalali bo‘lsa, bemorni bir tomonidan davolagan bo‘lsa, boshqa tarafdan ko‘nglini jarohatlaydi. Agar tabib o‘qimishli, ilmli bo‘lmasa, u jallod shogirtidir. Jallod tig‘ bilan o‘ldirsa, u davo

---

<sup>1</sup> Sirojiddinov Shuhrat. 2020. Amir Alisher. – T.: Adabiyot. – B. 200.

<sup>2</sup> Marg‘ub- yoqimli

o‘rniga zaharlaydi.

Jamiyatning faol a’zolariga aylanib borayotgan yoshlar o‘ziga xos o‘rin egallashlari uchun qanday hislatlarga ega bolmog‘ligi kerak? Ushbu kishilik jamiyatida ezgulik va to‘liq saodat hukm surishi uchun jamiyat a’zolari qanday tamoyillarga asoslanishlari haqida ushbu asarning ikkinchi qismida 10 ta bob doirasida tahsinga sazovor fe'l-atvor, yuksak xulqga erishish tamoyillari orqali ochib beradi. Bular tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va adab, zikr, rizo, tavajjuhva ishqadir. Mana shu fazilatlar inson qalbini tug‘yon va isyondan saqlaydi, unga huzur va halovat baxsh etadi, xulqini go‘zal qiladi, bardoshini oshiradi. Irodasining baquvvat bo‘lishiga yordam beradi.

Masalan, zuhdga bag‘ishlangan bobiga nazar tashlaylik.

Zuhd arab tilida “bee’tiborlik”, “moddiy manfaatga befarq bo‘lish” – tarkidunyochilik, Xudoning marhamatiga musharraf bo‘lish, jannatga tushish uchun tarkidunyo qilish.<sup>3</sup> Navoiy esa zuhdni shunday tushintiradi:

Zuhd – bo‘lar-bo‘lmas orzulardan kechmoq, molu mansab ketidan quvmaslik, nomahram yuzdan ko‘zni asrashlik va yomon so‘zlardan tilni tiymoqlik.<sup>4</sup>

Kimki bu maqomni qo‘lga kiritса, uning ko‘nglida bir nur paydo bo‘лади va ko‘nglini hamisha shod etadi.

Navoiy har bir inson qalban zohid bo‘lishini, zuhd maqomini egallashini orzu qiladi. Bunday zuhd insonning ko‘ngil halovati, qalb osudaligini ta’minlaydi.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismida Navoiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchiga murojat etadi va turli tanbeh, pand-nasihatlar vositasida ularga ma’naviy komolot sirlarini o‘rgatadi.

Misol qilib, 63-tanbex “Shukr va uzr boisi” to‘g‘risida:

Masnaviy:

Har zuhdki, ujub anga erur zam,

Ko‘nglim haramig‘a qilma mahram.

Har fisqki, uzur anga berur yor,

<sup>3</sup> Tasavvuf atamalari izohli lug‘at: Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. – Toshkent: Movrannahr, 2015. -360 b.

<sup>4</sup> Alisher Navoiy. Mahbubul – qulub. – T.: Sano-standart. 2018. – B. 192.

Ul yon meni moyil ayla zinxor.

Sharxi:

Har zuhdu taqvo o‘zga bino qo‘yishga ollib kelsa,

Ko‘nglim uyiga uni yaqinlashtirma.

Har gunohki tavba unga yor bo‘lsa,

Meni shu tomonga, albatta, moyil qil.

Ushbu tanbehda Navoiy nadomat qilmaydigan fosiq – shum, nadomat qilmaydigan saodat ahli yonida mazlum (ya’ni nafs tufayli o‘ziga o‘zi zulm qilgan). Taqvoyu, fisq elga Xudoninng taqdiridir, ammo ikkalasini birdek ko‘rmoq nodonlikdir.

Taqvodor bo‘lsa hamma narsaga shukr qiluvchi, isyonkor bo‘lmasligi kerak, uzr so‘rashni ham bilishi kerak. Tavfiqqa erishganlarning nadomat belgisi shudir deb aytildi.

Gunoh qilib pushaymon bo‘lish, tavfiqning nishonasi, zuhd-u taqvo qilib, shunga mag‘rurlansa, bu shaytonning afsonasi deb sharxlaydi.

Xulosa qilib, xazrat Navoiy nafaqat ulug‘ mutaffakir, ulug‘ shoir, balki o‘z xalqi, millati taqdiriga befarq bo‘lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o‘z umri intihosida hammillat va xalq dardi bilan yashadi. “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyat bilan bog‘liq orzu-umidlarini ifodalaydi. Unga jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish va shaxs manavoyiyatini tarbiyalash kabi o‘zining so‘ngi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sirojiddinov, Shuhrat. 2020. Amir Alisher. – T.: Adabiyot. – B. 200.
2. Tasavvuf atamalari izohli lug‘at: Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi.- Toshkent: Movrannahr, 2015. -360 b.
3. Alisher Navoiy Mahbubul – qulub. – T.: Sano-standart. 2018. – B. 192.